ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EKSPRESSIVLIK VA INTENSIVLIK MUNOSABATI

Jo'rayeva Bibish Muxsinovna,
Buxoro davlat universiteti professori, filologoya fanlari doktori, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining Buxoro bo'limi rahbari

To'xtayeva Dilafruz Ashurovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Uslubiyatning markaziy kategoriyalaridan biri ekspressivlik bo'lib, tilshunoslikda uning qamrov doirasi va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha aniq xulosalarga kelinmagan. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlarda ushbu kategotiyaning emotsionallik bilan yonma-yon qo'llanilishi ko'p uchraydi. "Lug'at sostavidagi ba'zi so'zlar ma'lum bir tushunchani ifodalashdan tashqari, qo'shimcha emotsional-ekspressiv rangga ham ega ekanligi ilgari aytib o'tildi. Masalan, *bo'sh – lavang, kulgi – tabassum* kabi sinonim so'zlarning keyingilari emotsionallikkka boy, shuning uchun ta'sirchan. So'zlar emotsional-ekspressiv rangga ega bo'lganida, ularning stilistik ayirmasi ayniqsa yaqqol seziladi. Tushuncha ifodalashdan tashqari, qo'shimcha ta'sirchanlikka erishish va nutqning ma'lum stilini yaratish maqsadida qo'llanadigan so'zlar ekspressiv-stilistik leksika deyiladi. Ekspressiv-stilistik jihatdan hozirgi o'zbek tili lug'at sostavini ikki katta gruppaga ajratish mumkin: *a) og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi leksika, b) stilistik chegaralangan leksika.*[1]

Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorovlar hammuallifliklaridagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida bu ikki kategotiya nomi yonma-yon qo'llangan: "...lug'at sostavida ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining turlicha munosabatini anglatishga xizmat qiladigan, shunga xoslangan so'zlar bor. Ana shu xoslanganlik nuqtayi nazaridan o'zbek tili leksikasini ikki asosiy gruppaga ajratish mumkin: *1) emotsional-ekpressiv bo'yoq nuqtayi nazaridan o'zbek tili leksikasi; 2) stil (uslub) nuqtayi nazaridan o'zbek tili leksikasi*[2].

Ushbu har xilliklarning oldini olish va tadqiqotda qo'yilgan vazifalar bilan bog'liq holda ekspressivlik kategotiyasining mohiyatini aniqlash lozim bo'ladi. Garchi qator darslik va qo'llanmalarda bu ikki kategotiyaning qorishtirilib berilishi odatiy holga aylangan bo'lsa-da, 1985-yilda nashr etilgan A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da, 2023-yilda chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ekspressivlik va emotsionallikka alohida-alohida munosabat bildirilgan: **Ekspressiv leksika.** Ekspressiya ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan leksika: *qizaloq, tentak* kabi. q.ekspressiya. qiyos. emotsional leksika. **Ekspressivlik**. Ekspressiyaning mavjudligi. **Ekspressiya** [lot. exspressio – ifoda]. Nutqning ta'sirchanlik xususiyati. Bu xususiyat leksik, grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi. q.ekspressiv leksika, subyektiv baho formasi[3]. **Ekspressiv** *tlsh***.** Ekspressivlik xususiyatiga ega bo'lgan. *Ekpressiv leksika.* **Ekspressivlik** *tlsh.* Lisoniy birliklar vositasida fikr ifodalashning ta'sirchanligini orttirish. *Ekspressivlik fikr ifodasining ta'sir kuchini orttirish demakdir…*[4].

Lug'atlarda har bir termin uchun alohida maqola bag'ishlanishi ushbu atamalarning o'ziga xos xususiyati mavjudligidan darak beradi.

Tadqiqotchi I.I. Turanskiy ekspressivlikni intensivlik bilan quyidagicha bog'laydi. "Keng va umumiy qabul qilingan talqinda ekspressivlik ifodalilik va obrazlilikning ortishidir. "Intensivlik" atamasining mazmuni to'g'ridan to'g'ri "kuchaytirish" tushunchasiga mos keladi va tabiiy ravishda savol tug'iladi: "ekspressivlik" va "intensivlik"ni farqlash mumkinmi va agar bunday farqlashning imkoni bo'lsa, unda qaysi jihatni asos qilib olish o'zini oqlaydi?

Intensivlik va unga bog'liq bo'lgan subyektiv kategoriyalar o'rtasidagi aloqadorlikni e'tirof etgan holda bir qator tadqiqotchilar intensivlik ekspressivlikning o'ziga xos xususiyati sifatida namoyan bo'lishini qayd etishadi. I.I. Turanskiyning ta'kidlashicha, "intensivlik

[1] Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970. – B. 45-46.

[2] Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyav A., Rasulov I.,.Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 133.

[3] Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B. 110.

[4] O'zbek tilining izohli lug'ati.VI jildlik. II jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.22.

u yoki bu kuchning o‘lchovi, ifodalilik o‘lchovi, uning darajasi, hissiyot o‘lchovidir”[1].

Intensivlik kategoriyasi haqidagi qarashlar zamonaviy tilshunoslikda eng ko‘p muhokama qilinadigan masalalardan biridir. So‘nggi vaqtlarda jahon tilshunosligida belgi xususiyatining kuchayishi va zaiflashishini ifodalash usullarini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘z ishlarida “intensivlik” tushunchasidan foydalanmoqda. Ammo ushbu terminning aniq talqini va shunga mos ravishda aniq ta’rifi hozirgacha yo‘q. Buning sababi shundaki, bugungi kunda intensivlik, ekspressivlik, emotsionallik, baholash, darajalanish kabi tushunchalarni farqlash zarurati va usullari to‘g‘risida umumiy fikr o‘zbek tilshunosligida mavjud emas. Rus tilshunosligida ayrim olimlar intensivlikni mustaqil kategoriya sifatida belgilashning maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘tarib, ushbu kategoriyani emotsionallik va ekspressivlikning ma’lum darajada sinonimi sifatida ko‘rib chiqadilar[2].

Intensivlikni belgilashning nazariy manbalari Sh. Balli tadqiqotlariga asoslanadi. Olim ta’kidlaganidek, “Intensivlik termini ostida miqdor, kattalik, qiymat, kuch singari xususiyatlarning oshib borishi tushuniladi”[3]. Olimning ushbu qarashlarini asosli ilmiy-nazariy xulosa sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, bugungi kunda jahon tilshunosligida keng ma’noda “intensivlik” termini ostida belgining miqdoriy o‘zgarishi anglashiladi, bunda “ma’lum bir o‘lchov doirasidagi xususiyatning rivojlanish darajasi tushuniladi, bu rivojlanish sifatning o‘zgarishiga olib kelmaydi”[4]. Bunday ta’rif intensivlikning mohiyatini o‘zida aks ettirsa-da, uning o‘ziga xosligini to‘liq ochib bera olmaydi, unga yondosh bo‘lgan boshqa kategoriyalar o‘rtasida aniq chegara chizishga imkon bermaydi.

Ba’zi tadqiqotchilar intensivlik kategoriyasini “sifat va miqdor sohalari o‘rtasida o‘rta pozitsiyani egallagan (ikkalasi bilan kesishgan)” sifat-miqdor kategoriyasi sifatida belgilaydilar[5]. Bu qarashga ham ijobiy munosabat bildirmaslikning imkoni yo‘q, chunki tilda turli kategoriyalar yonma-yon yashar ekan, albatta, ular o‘rtasida oraliq uchinchi hodisasining bo‘y ko‘rsatishi tabiiy.

Aristotel davridan boshlab intensivlik kategoriyasiga ikki tomonlama yondashuv o‘rnatildi: bir tomondan, u eng umumiy, universal kategoriya sifatida qaralsa; ikkinchi tomondan, biz ushbu kategoriya haqida tor tushunchaga duch kelamiz, bunda u haqiqatda ma’lum bir tushunchaga mos keladi va tilda – sifatni baholashning miqdoriy o‘lchovi, aloqa mazmunining xarakteristikasi sanaladi.

“Shuni ta’kidlash kerakki, – deb yozadi olima V.N. Yegorova, – intensivlik tushunchasi, agar u ekspressivlik tushunchasiga to‘g‘ri kelsa, sifat emas, balki miqdoriy ekspressivlikni ifodalashga xizmat qiladi”[6]. Intensivlik tilning semantik kategoriyasi bo‘lib, uning asosida so‘zning keng ma’nosida miqdor o‘sishi tushunchasi yotadi. Intensivlik – sifatni baholashning miqdoriy o‘lchovi va aloqa mazmuni xarakteristikasi. Uslubiy nuqtayi nazardan intensivlik ekspressivlikning o‘lchovidir. Intensivlik kategoriyasining mohiyati miqdorning namoyon bo‘lish darajasini ifodalashdan iborat. Ekspressivlikni nutq yoki lisoniy birlikning belgisi, xususiyati sifatida ko‘rish intensivlikni uning miqdoriy xarakteristikasi deb hisoblashimizga asos bo‘ladi. Intensivlik kategoriyasi, uning xususiyatlari til va nutqdagi ifoda vositalari keyingi o‘n yilliklarda ko‘plab olimlarning e’tiborini tortdi. Buning bir qator sabablari mavjud. Intensivlik kategoriyasi universallik xususiyatiga ega: harakat, obyekt va belgilarni tavsiflash; fe’l, ot, sifat, qo‘shimcha, frazeologik birliklar va butun matnning semantik tarkibida faol namoyon bo‘ladi. Ammo shunday bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida bu termin ayrim manbalarda faqatgina sifat so‘z turkumida uning darajalarini ifoda etuvchi atama sifatida qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz. S.Ibrohimov muharrirligidagi birinchi akadem grammatikada sifat darajalari “Sifatlarning intensiv formalari” sarlavhasi ostida berilgan va bunda intensivlik belgining ortib borishi sifatida talqin qilingan: “O‘zbek tilida sifatlar (ayniqsa, rang-tus bildiruvchi sifatlar) belgining o‘ta ortiqligini ifodalovchi o‘ziga xos shaklga – intensiv formaga ega: *qip-qizil, qop-qora, ko‘m-ko‘k* kabi[7].

Ammo mualliflar intensivlikni darajalanish bilan qorishtirib yuborishadi: “Sifatning ortiqligini ifodalovchi bu maxsus shakl (intensiv forma) tilimizda qadimdan mavjud. Bu formaning tuzilishi, ma’nosi Alisher Navoiyning mashhur lingvistik asari – “Muhokamatul lug‘atayn”da qayd etilgan”[8].

[1] Туранский И.И. Содержание и выражение интенсивности в английском языке: Дис… док. филол. наук. – М., 1991. – С. 6–7.

[2] Егорова В.Н. К вопросу определения интенсивности в современном языкознании. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2009, № 6 (2). – С. 224–226.

[3] Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961. – С. 202.

[4] Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке: Дис… канд. филол. наук. – М., 1981. – С. 13–22.

[5] Бондарко А.В. Основы функциональной грамматики. – СПб., 2001. – С. 21.

[6] Егорова В.Н. К вопросу определения интенсивности в современном языкознании. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2009, № 6 (2). – С. 224–226.

[7] Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent: O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1957. – B.348-349

[8] Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent: O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1957. – B.348-349

Garchi kitobda intensivlik faqatgina belgining ortib borishi sifatida bir tomonlama talqin qilinsa-da, ammo bu kategoriyaga xos asosiy jihat o‘rinli ta’kidlanadi: “Intensiv forma sifatlarning birinchi bo‘g‘inini ma’lum tartibda takrorlash yo‘li bilan hosil etiladi. Bunda takrorlanuvchi (sifat darajasini orttirib ko‘rsatuvchi) birinchi bo‘g‘in, sifatning tovush sostaviga ko‘ra, turlicha, ya’ni har qaysi sifatning o‘ziga xos bo‘ladi: *qop-(qora), qip-(qizil)*; shu sababli ham *sifat oldidan qo‘shiluvchi* (ta’kid bizniki – D.T.) bu bo‘g‘inni, prof. N.K.Dmitriyevning fikricha, prefiks deb bo‘lmaydi. N.K.Dmitriyev o‘zining so‘nggi asarlarida, sifatlardagi bu kuchaytiruvchi elementning asli to‘liq holda takrorlanuvchi (*qora-qora, qizil-qizil* kabi) sifatlardan birining (birinchisining) qisqargan holda takrorlanishidan vujudga kelgan bo‘lsa kerak, degan fikrni bayon etadi”[1]. S.E.Rodionova ham intensivlikni belgining kuchayib borishi deya qayd etadi[2].

Shunday qilib, intensivlik tushunchasi tilning semantik kategoriyasi sifatida belgining ifoda o‘lchovi hisoblanadi. Intensivlik darajasini aniqlash “intensivlik shkalasi” tushunchasini kiritishni taqozo etadi. Bu masshtab murojaat qiluvchining ongida ham, qabul qiluvchining ongida ham mavjud bo‘ladi. Ushbu shkala bo‘yicha belgilash subyektiv xarakterga ega hamda nutq hodisasi sanaladi: u shaxsni idrok etish va baholashga asoslanadi, ammo u, albatta, miqdor o‘zgarishlarini nazarda tutadi, belgining intensivlik darajasi o‘zgarishi, qoida tariqasida, nutqning perlokatsion ta’siri o‘zgarishiga olib keladi. Belgi atributini kuchaytirish vositalari va usullarining umumiy manzarasi juda xilma-xil, lekin uning orqasida tilda mavjud bo‘lgan va real nutq sharoitida amalga oshiriladigan ma’lum bir tizim yotadi. Intensivlikning fonetik, morfologik, leksik, frazeologik, leksik-grammatik va sintaktik vosita hamda usullari har safar yangidan yaratilmaydi, balki ma’lum qoidalar asosida modellashtiriladi, u modellar so‘zlovchining ongida mavjud bo‘ladi. Intensivlik kategoriyasining har bir vositasi nutq subyektining voqelikka munosabatini ifodalaydi, o‘ziga xos denotativ ma’no bilan tavsiflanadi va uning funksional yukini bajaradi. Intensifikatsiya vositalarini tanlash pragmatik omillar va lingvistik an’analarga bog‘liq holda yuz beradi. Shunday qilib, ekspressivlik gapning sifat tomonini ifodalaydi, intensivlik esa yangi sifatga aylanmaydigan miqdor bilan bog‘liq bo‘ladi.

Yuqoridagi jihatlar intensivlik va ekspressivlik ikkita mustaqil kategoriya ekanligini tasdiqlaydi. Xo‘sh, nega bir qator tadqiqotchilar ushbu kategoriyalarni chegaralashda hali ham ikkilanishadi? Ehtimol, bu ushbu kategoriyalarni tuzishda bir xil ko‘p darajali lingvistik vositalar to‘plamidan foydalanilganligi bilan bog‘liq: fonetik, morfologik, sintaktik va h.k.

Rus tilshunosligida intensivlikka ikki xil munosabat ko‘zga tashlanadi: 1*. Intensivlik ekspressivlik sifatining o‘lchovi sifatida.* 2. *Intensivlik ekspressivlik miqdorining o‘lchovi sifatida.* Jumladan, I.I. Turanskiy “intensivlik” atamasini ekspressiv uslubiyat doirasida atrof olamdagi bo‘y, vazn, rang kabi obyektiv belgilar mavjudligi holatini belgilovchi kategoriya sifatida qayd etadi. N.V.Karpovskayaning bu boradagi qarashlari I.I. Turanskiyning fikriga hamohang. Olima yozadi: “Intensivlik - bu nutq sifat tomonining miqdoriy xarakteristikasi, ekspressiv matnning subyektiv-mantiqiy mazmunidan qanchalik yuqori ko‘tarilishining miqdoriy aksidir”[3].

Ko‘pgina tilshunoslarning fikriga ko‘ra, intensivlik parametrik miqdorlarning birinchi bosqich belgilari bo‘lib, narsa-predmetlarning bevosita xususiyati sifatida harakat qiladi. Intensivlik nafaqat ekspressivlik o‘lchovi (asosan, matnga turli xil kuchaytirgichlarning kiritilishi bilan bog‘liq), balki uning tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Agar gapda biron-bir xususiyat kuchayib ketsa, u holda umumiy gap ekspressivlikka ega bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda intensivlik belgining miqdor jihatidan oshishi yoki kamayishi hisoblanadi va bu sifat darajalari bilangina chegaralanib qolmaydi. Maqolda intensivlik juda keng tarqalgan semantik kategoriyalardan biri sanaladi. Chunonchi, maqollarda intensivlikning quyidagi ikki ko‘rinishi farqlanadi: 1. Belgining oshishi. 2. Belgining pasayib borishi.

Belgi oshishining ham ikki turi ko‘zga tashlanadi: 1. Bevosita belgining oshishi. Chunonchi, miqdor oshishining bevosita ifodasi: a) son orqali: Dovi – *bir* tanga, vaqti – *ming* tanga[4]. Yigitning xuni – *yuz* yilqi, Ori – *ming* yilqi[5] – qiymatning miqdoriy oshishi. Olgan – *bir* aybdor, Oldirgan – *ikk*i aybdor[6] – aybdorlik hissining oshishi; b) ravish orqali: *Kam* yemoq to‘rga eltar, *ko‘p* yemoq go‘rga – ovqat iste’moli miqdorining oshishi va h.k. 2. Miqdor oshishining bilvosita ifodasi: *Yolg‘iz* mehmon – atoyi xudo, *Otliq* mehmon – baloyi xudo[7] – tashvish hajmining oshishi.

[1] Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent: O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1957. – B. 348-349.

[2] Родионова С.Е. Интенсивность и её место в ряду других семантических категорий. Славянский вестник. Вып. 2. – М.: МАКС Пресс, 2004. – 608 с. – С. 300.

[3] Карповская Н.В. Категория интенсивности атрибутивного признака в испанском языке: Дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1998. – С. 8.

[4] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B. 81.

[5] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B.169.

[6] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B.235.

[7] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B. 229.

Belgining pasayib borishi. Bu ham ikki xil holatda namoyon bo‘ladi. Jumladan, miqdor pasayishining bevosita ifodasi: *Yuzta* “siz-biz”dan – *bitta* “jiz-biz” yaxshi[1]. Birovning *to‘*rt oyoqlik otidan o‘zingning *ikki* oyog‘ing yaxshi[2] – qiymatning miqdoriy tushishi. Miqdor pasayishining bilvosita ifodasi: Er urug‘i *savat* bosh, Xotin urug‘i – *ilon* bosh[3] – miqdor hajmning torayishi. *Yoz* oftobiga keliningni o‘tqaz, *kuz* oftobida – qizingni[4] – harorat ta’sirining pasayishi.

Ayrim maqollarda belgi daxldor so‘zning tushib qolish holati ham namoyon bo‘ladi: *Birdan ikki* yaxshi, *ikkidan uch* yaxshi[5]. *Oltmishgacha* oshir, *yetmishdan* so‘ng yashir[6]. Ayrim maqollardagi so‘zlar intensivlikni yuzaga keltirganda, belgi bildiruvchi so‘z bilan intensivlikni yuzaga keltiruvchi so‘z o‘rin almashishi ham mumkin: Olarda *sanog‘i to‘qqiz*, berarda *sanog‘i o‘ttiz*[7]. Ba’zan qo‘shma gapda ikkinchi gapning kesimi tushib qoladi va kesimning vazifasi intensivlikni ifodalovchi songa yuklanadi: O‘q *birni* o‘ldiradi, So‘z *mingni*[8].

Demak, intensivlik va ekspressivlik kategoriyalarining funksional tomonlari qisman mos keladi. Ularning asosiy vazifasi – ikkala kategoriya ham, odatda, qabul qiluvchiga ta’sir qilishning kuchayishi funksiyasini bajaradi (Ayrim hollarda intensivlik belgining kuchsizlik darajasini ifodalashga ham xizmat qiladi: sarg‘ish, ko‘kimtir, nimpushti, biroz chuqur, sal to‘la, xiyol ayyor).

Ammo bir jihatni alohida qayd etish lozimki, intensivlikda ta’sir kuchining oshishi, odatda, denotativ ma’no bilan aloqador bo‘lsa; ekspressivlikda ta’sir kuchining oshishi konnotativ ma’noni keltirib chiqaradi. Intensivlik va ekspressivlikning aniq ajralib turadigan muhim jihat bor: bu ikkala kategoriyaning mazmun tomoni. Ekspressivlikning mazmun jihati deganda lisoniy birlikning asosiy ma’nosida qatlamlangan va shu tariqa nutqning obrazliligi va ekspressivligini yaratuvchi konnotatsiyalar tushuniladi. Intensivlik – bu xususiyatning miqdoriy xarakteristikasi bo‘lib, uning birlamchi ifodasida baholash yoki hissiyot bo‘lmasligi mumkin, ammo so‘zlovchining kommunikativ vazifasi muayyan vaziyatning keyingi subyektiv rivojlanishiga sabab bo‘ladi va, qoida tariqasida, baholashni ham, ifodalashni ham o‘z ichiga oladi: *Bir* qo‘ylini *ming* qo‘yli qilgan – Arslondining yeri, *ming* qo‘ylini *bir* qo‘yli qilgan – Arslondining yeli. *Bir* tayoqni sindirib bo‘ladi, *O‘n* tayoqni bukib ham bo‘lmaydi. Ilon *yuz* yashasa, ajdaho *ming* yashasa – yuho bo‘ladi. Temirchining *bir* urgani – ninachining *ming* urgani va h.k.

Ekspressivlik (tilshunoslikda) – til birligining semantik-stilistik belgilari majmuyi; til birligining aloqa-so‘zlashuv jarayonida so‘zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo‘la olishini ta’minlaydi va bunda ekspresivlikni emotsiolnallik yuzaga chiqaradi. Kelgusi maqolamiz shu haqda bo‘ladi.

Rezyume. Ekspressivlik va intensivlikka xos jihatlarni *“kuchaytirish”* tushunchasi orqali aniqlash mumkin. Intensivlikning ekspressivlikka aloqadorligi shuni anglatadiki, nutqimizdagi ekspressivlik ko‘pincha uning intensifikatsiyasiga borib taqaladi va uslub nuqtayi nazardan o‘rganilayotgan birikmalar asosiy holatlarda kuchaytirishni talab qiladi. Bundan tashqari, bu ikki kategoriya tilshunoslikning ichki kategoriyalari hisoblanib, birgalikda ular nutqning ifodali va adabiy ko‘rinishga ega bo‘lishi uchun pragmatik holat yaratadi hamda har ikkalasi ham faqatgina ma’lumot berish vazifasini bajaribgina qolmay, yana ikkinchi tomondagi suhbatdoshga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ekspressivlik va intensivlikning formal aspektlari ham bir-biriga mos keladi, ya’ni har ikkala kategoriyada ham emotsionallik va baholash ko‘rsatkichlari mavjud bo‘ladi.

Resume. Expressiveness and intensity can be “enhanced” by technology. The relationship of intensity to expressiveness means that expressiveness in our speech often goes back to its intensification and requires the development of combinations that study the style from a stylistic point of view. In addition, these two categories are considered internal categories of linguistics and are constantly being studied, both of which contribute to the pragmatic situation of speech, not only providing information, but also exerting a strong influence on the interlocutor. . The formal aspects of expressiveness and intensity also coincide, that is, both categories contain indicators of emotionality and expressiveness.

[1] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B. 412.
[2] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B.44.
[3] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B.187.
[4] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B.101.
[5] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B.223.
[6] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B. 271.
[7] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 265.
[8] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 357.

Резюме. Это возможно благодаря технологии «усиления» характерной выразительности и интенсивности. Отношение интенсивности к выразительности означает, что выразительность в нашей речи часто сводится к ее усилению и требует образования сочетаний, изучающих стиль с точки зрения. Кроме того, эти две категории считаются внутренними категориями языкознания, и обе они не только помогают донести информацию, но и оказывают сильное влияние на собеседника. Формальные стороны выразительности и интенсивности совместимы друг с другом, то есть обе категории содержат показатели эмоциональности и интенсивности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ДАРБАНД, ТЕМИР ДАРВОЗА, ОҚҚЎТАЛ ВА "ТЕМИРДАН ЯСАЛГАН ДАРВОЗА" АТАМАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Ёқубов Шариф,
Термиз давлат университети доценти,
филология фанлари номзоди

Топонимлар ономастиканиниг бир тури бўлиб айримлари жуда қадим замонлардан буён мавжуд бўлса, бир қатор топонимлар яқин ўтмишимизда ҳосил бўлган номлар ҳисобланади. Баъзи топонимлар ҳозирги кунда ҳам юзага келаётгани маълум. Шунинг учун улар қайси даврда юзага келган бўлса ўша давр кишиларининг турмуш тарзи, яшаш шароити, анъаналари, урф-одатларини, диний ва дунёвий дунёқарашларини ҳам ўзида мужассамлаштиради. Шу жиҳати билан улар ўзбек тили лексикасининг ривожланиб боришига монанд равишда тараққий этади. Айримлари ўтмиш даврлар даракчиси бўлиб хизмат қилади[1]. Айрим топонимларнинг маъносини осон тушиниб олиш мумкин бўлгани ҳолда баъзиларининг семантик мазмунини бир қатор тадқиқотлар орқали тушуниб олиш, унинг асл маъно-моҳиятини англаб олиш мумкин. Чунки уларнинг айримлари ўтмиш даврларда пайдо бўлиб, кейинчалик хилма-хил сабабларга кўра товуш ўзгаришига учраб тўғридан-тўғри маъносини тушуниб олиш қийин бўлади. Шу жиҳатдан қараганда Вилоятимизнинг Бойсун туманидаги машҳур Темир дарвоза ҳудудида жойлашган Оққўтал топоними ҳам ана шундай жой номи ҳисобланади. Термиз – Тошкент автомобил йўлининг Шўроб дарёси устига қурилган кўприкдан ўтиб бир оз юрилгач, Бойсундан келаётган йўл Дарбанд қишлоғидан 2 км. ўтиб Термиз–Тошкент йўлига қўшилади ва бирдан ғарбга бурилади. Шу ерда бир-бирига яқинлашиб қолган икки тоғ: ўнг томонда Саримас тоғи ва чап томонда Сувсиз тоғининг тик қоялари кўзга ташланади. Ўртада эса Оққўтал тизмаси икки тоғ орасида ястаниб ётибди. Табиатан икки тоғни бирлаштириб турувчи суний сув омборининг тўғонига ўхшаб кўринади.

Дарбанд сўзининг келиб чиқишига Оққўтал тизма тоғининг табиий тузилиши асос қилиб олилган бўлиши ҳам мумкин. Чунки узоқ-узоқлардан бошланган Сувсиз ва Саримас тоғлари Дарбанд қишлоғи ёнига келиб, Сувсиз тоғи бирдан пасайиб Шўроб дарёсининг водийсига қўшилиб кетади. Саримас тоғи эса ушбу ҳудудга келиб осмонўпар қояларини кўз-кўз қилиб, ғарбга кескин бурилиб, йўналишини ўзгартиради. Икки тоғ орасидаги очиқ жойда ястаниб ётган Оққўтал тизмаси 1,5 км.лик икки тоғ орасидаги жойда пайдо бўлиб ҳар иккаласини белбоғдай боғлаб туради. У тоғлар орасидаги бандга ўхшайди. Оққўтал тизмаси 100-150 метр баландликда жойлашган бўлиб, бу табиий тизма (кичик тоғ) ўртадаги очиқ жойни қўл билан яратилган қирдай боғлаб туради. Бу ҳолат айниқса қирнинг жануб томонидан яққол сезилиб туради. Тоғлар оралаб Шўроб дарёсининг бир текис

[1] Э.Бегматов.Қадимий даврлар даракчиси.// Совет мактаби. 1967 й. 8-сон, -Б. 44-45.